

INSON SHA'NI VA QADR-QIMMATI

K.Muhammadsobirov

Andijon davlat pedagogika instituti (huquq ta'limi) magistranti.

Inson huquqlari poymol etilishining oldini olish bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Aynan inson huquqlarining ta'minlanganlik darajasi bilan davlatning demokratik rivojlanganlik darajasi o'lchanadi. Inson huquqlari muayyan bir mamlakatda demokratik-huquqiy davlat barpo etish siyosatining o'ziga xos barometri hisoblanadi.

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali surishtiruv va tergov jarayonlarida yoki jazoni ijro etish muassasalarida fuqarolarga jismoniy va ruhiy bosim o'tkazish, qiynoqqa solishga oid qator xabarlar tarqalib, keng jamoatchilik e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr qimmatini kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya"ni hamda inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro hujjatni ratifiikasiya qilgan

Konstitusiyamizda belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Insonni ulug'lash, uning huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda har tomonlama kamol toptirish Konstitusiyaning asosiy g'oyasiga aylantirilgan.

"Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas" deyiladi konstitusiyamizning 26-moddasida.

Ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan Ombudsman huzuridagi qiynoqlarning oldini olish bo'yicha Milliy preventiv mexanizm 2019-yilda yo'lga qo'yilib, bu orqali mahkumlar huquqlarini ta'minlash bo'yicha jamoatchilik nazorati o'rnatilishiga erishilgan bo'lishiga qaramay, Vakilga yuborilayotgan murojaatlar tahlili bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar borligini ko'rsatmoqda. Misol uchun, 2020-yilda Ombudsman ofisiga kelib tushgan jami murojaatlar tahlil etilganda, ularning 1044 tasida fuqarolarning odil sudlovga hamda 2565 tasida adolatli tergov-surishtiruv harakatlariga bo'lgan huquqlarini ta'minlashda yordam so'ralgan. (manba:ombudsman.uz)

2021-yil 22-fevral kuni yurtboshimiz BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida "Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy

preventiv mexanizmni joriy etish doirasida biz odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo‘lgan qiynoqlarning har qanday ko‘rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo‘l qo‘ymaymiz. Bunday jinoyatlar qachon sodir etilganidan qat’iy nazar, ular uchun jazo muqarrardir” deb ta’kidladilar.

Shu yo‘sinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5163-son qarori kuchga kirdi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida potensial ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilsada, tizimlar faoliyatida kuch ishlatish, zo‘ravonlik holatlari ham uchrab turibti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

So‘nggi yillarda qiynoqlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha jiddiy va ortga qaytmaydigan islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, Toshkent viloyatining Bo‘ka tumani Ichki ishlar binosida, o‘g‘rilikda gumonlangan 36 yoshli fuqaroga nisbatan tergov harakatini xizmat xonasida olib borgan tezkor qidiruv xodimlari gumonlanuvchini kaltaklab, qiynoqqa solishi oqibatida vafot etadi. Andijonlik fuqaro shahar Ichki ishlar bo‘limining ma‘muriy binosiga olib kirilganidan ikki hafta o‘tgach, kasalxonada vafot etdi. Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Chiroqchi tuman bo‘limida kaltaklanish natijasida 32 yoshli erkak vafot etdi. Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on Ichki ishlar bo‘limida tezkor xodim tomonidan ayol kishi ommaviy tahqirlandi. Buxoroda ichki ishlar binosida fuqaro favot etdi. Chilonzor ichki ishlar bo‘limida fuqaro o‘zini 4-qavatdan uloqtirdi. Toshkentda Ichki ishkar bo‘limi xodimlari yoshlarni urgani va tahqirlaganligi to‘g‘risida xabar kelib tushdi, bu ro‘yxatni shu tarzda uzoq davom ettirish mumkin.

Yuqoridagi noxush hodisalarga bevosita aloqador bo‘lgan ichki ishlar xodimlariga tegishli tartibda qonuniy choralar ko‘rilgan. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ichki ishlar organlari o‘z vazifalarini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash orqali amalga oshirishlari belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, qonunda ichki ishlar organi xodimiga qiynoqqa solish, zo‘ravonlik qilish, boshqa shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsitadigan tarzda muomalada bo‘lish taqiqlanishi, ichki ishlar organining xodimi fuqaroga qasddan og‘riq, jismoniy yoki ma‘naviy azob yetkaziladigan xatti-harakatlarga chek qo‘yishi shartligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining “Shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish” deb nomlanuvchi 17-moddasida sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ishda qatnashayotgan shaxslarning sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shartligi hamda hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha‘ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi kabi qoidalar o‘z ifodasini topgan.

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilishi rejalashtirilgan referendum oldi O‘zbekiston konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuv chog‘ida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev-inson qadr-qimmatini, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o‘rinda turishi kerak deb alohida takidlab o‘tdi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlar oshkor bo‘lishiga olib keladigan, sog‘ligini xavf ostiga qo‘yadigan, asossiz ravishda unga jismoniy yoki ma’naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilishni oldini olish va muntazam monitoring olib borish lozim.

